

**MUSIQADA O'QUVCHILAR OVOZINI TARBIYALASHDA VOKAL  
SAN'ATINING YANGI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA  
O'RGAТИSHNING AHAMIYATI**

**Omonov Hasan Sulaymanovich,**

Ilmiy raxbar, Musiqa madaniyati  
fakulteti dekani, dotsent

**Savapov Rashid Irkinovich,**

Jizzax davlat pedagogika instituti  
Musiqa ta'limi va san'at 2 - kurs magistranti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa madaniyati darslarida o'quvchi yoshlarni jahon xalqlari musiqa san'atida yetakchi o'rnlardan birini egallagan vokal san'ati bilan tanishtirish va bu san'atning go'zal musiqiy xususiyatlaridan bahramand qilishning tarbiyaviy ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** vokal, ovoz, musiqa madaniyati, diapazon, musiqiy qobiliyat

**Abstract:** This article discusses the educational value of introducing students to the art of vocal art, which is one of the leading musical arts in the world, and enjoying the beautiful musical features of this art.

**Keywords:** vocals, sound, music culture, range, musical ability

**Аннотация:** В этой статье обсуждается образовательная ценность знакомства учащихся с искусством вокала, которое является одним из ведущих музыкальных искусств в мире, и наслаждения прекрасными музыкальными особенностями этого искусства.

**Ключевые слова:** вокал, звук, музыкальная культура, диапазон, музыкальные способности.

Ta'larning globallashuvi sharoitida ta'lim sohasi bilan jamiyatning rivojlanib borayotgan ijtimoiy əhtiyojlari o'rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelganligi kuzatilmoqda. Ta'lim tizimi oldiga barkamol shaxsiy shakllantirish, ta'lim sohasi bilan mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartishi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi

yangi dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda. Mazkur vazifalar pedagogik texnologiya nazariyasini yaratish va ta’lim jarayonini puxta loyihalashga erishishi zaruriyatidan kelib chiqadi. Qayd etilganidek, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, ta’lim texnologiyalarini yaratish muammolari bo‘yicha olib boriladigan umumiy va amaliy tadqiqotlarga keng yo‘l bergen holda ushbu nazariya mohiyatini to‘laqonli aks ettiruvchi terminologiyani shakllantirishni taqozo etadi. Bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan umumiy ishlanmalarining mavjud bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, umumiy nazariy bazaga ega bo‘lmasdan turib, ayrim muammolarni hal etish mumkin emas.

Pedagogik texnologiya nazariyasi va uni ta’lim jarayonida qo‘llash muammolariga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar mazkur nazariyaning ta’lim rivojini ta’minlashdagi ahamiyatini chuqur anglab etish, uning imkoniyatlarini aniqlash va keng qo‘lamda axborot maydonini egalashga yordam beradi.

Xozirgi kunda ta’limning amaliy psixologik-pedagogik qamrovini kengaytirish, shaxsning ijobiy sifatini taraqqiy etishiga imkon beradigan bilim va ko‘nikmalarini, shakllantirish usullarini izlash oliy pedagogik ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Inson paydo bo‘libdiki, tarbiya jarayoni mavjud kichik insonni asrash va saqlash kerak. Bu o‘ziga xos xususiyat o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi.

O‘qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo‘lmaydi. O‘qituvchi bir soatdan keyinoq o‘z ishining hosilini ko‘radi. Po‘lat erituvchi bir necha soatlardan so‘ng olovli metal oqimidan shodlanadi. Bu uning orzusini yuksak cho‘qqisi; O‘qituvchi har bir minut, har bir daqiqada o‘zining o‘ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisidan har birini ko‘rib turishi, u shu daqiqada nimalar haqida o‘ylayotganligini, uning qanday g‘amlar va tashvishlar bilan yashayotganligini bilishi kerak.

Ovoz — ijrochining materiallaridan biri va eng muhim bo‘lganligi sababli, undan unumli foydalana bilishning o‘zi katta san’atdir. Biz rezonator-

qaytargichlar va barcha tovush a'zolarini birlashtirib ovoz manbalari deb ataymiz.

Manbalar juda oz bo'lgan, ayrimlarini istisno etganda, hammada bir xil bo'ladi. Ammo boshqa-boshqa a'zolarning ko'proq faoliyati yoki, aniqrog'i, hamma a'zolardan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida turli kishilarda ayrim a'zolar faoliyati ancha susayib qoladi. Odat tusiga kirib qolganligi tufayli, bunday kishilarda ba'zi qaytargichlar faoliyati pasayadi yoki butunlay yo'qoladi, ya'ni markaz (oliy asab) shu qaytargichlarni hisobdan chiqaradi, signal bermaydi. Natijada ovoz qo'polligi yoki, aksincha, xirildoqligi, ba'zan esa butunlay pichirlab qolish hollari yuz beradi. Tish, tanglay kabi qaytargichlar faoliyati bo'shashganligi natijasida faqat san'atda emas, balki oddiy turmushda ham nutq tovushlarini "siyqalashtirish", "chuchuklashtirish" kabi xatolar paydo bo'ladi.

Agar uyatchanlik, iymanish ovoz qaytargichlaridan unumli foydalanishni odat tusidan uzoqlashtirib, shivirlab gapirishga yaqinlashtirsa, ba'zi bir soxta oliftagarchilik, suxan-pardozlik yoki shuning kabi ovoz yo'nalishiga xilof odatlar natijasi ovozni "tomoqqa" tushirish kabi xatoga olib keladi. Bu ham qo'pol, ham zararli, eshitish uchun esa ko'ngilsiz bir holdir.

Bunday kamchiliklardan faqat san'atkorgina emas, balki har qanday kishi ham ehtiyyot bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kundalik faoliyatda nutq a'zolari, ayniqsa qaytargichlardan to'g'ri va unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Ijrochilik san'ati bilan shug'ullanuvchi kishilar esa imkonи boricha ovozni yo'lga qo'yish usullaridan xabardor bo'lishlari, hech bo'lmasa o'z ovozlarini to'g'ri tarbiyalay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari shart. Demak, inson tomog'i ma'lum bir chegara bilan cheklanuvchi ovozlarnigina vujudga keltiradi. Shunisi ham harakterlik, hiqildoq qanchalik keng bo'lsa, ovoz shu qadar yo'g'on bo'ladi va aksincha.

Ovozdan ongli ravishda foydalana olish, uni istagan vaqtida kerakli tomonga bura olish, ya’ni ovozni elastik (egiluvchan) qilish bilan nutqqa sayqal beriladi. Bu esa o‘z navbatida ijrochidan o‘z ovozini yaxshi bilish, uning hajmi, yutuq va kamchiliklarini o‘rganish va to‘g‘ri yo‘lga solish uchun tarbiyalashni talab qiladi. Chunki, zikr etilgan har bir ovoz ko‘rinishi royal klavishlari (pardalari) chegaralagan ovoz ohanglari soniga nisbatan ancha ko‘p obertonlarga ega bo‘lib, ularni ro‘yobga chiqarish va ishlata olish ovoz ustidagi tinimsiz mehnat-ovozni yo‘lga qo‘yish jarayoniiing mahsulidir.

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini musiqa madaniyati darslari orqali ma’naviyatlarini yuksaltirish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini qadrlash va rivojlantirishni namoyon etish, insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishda musiqa vositalaridan, jumladan musiqiy janrlardan biri bo‘lgan vokal san’atinining bugungi kundagi ahamiyatini anglash, tushunish, tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Umumta’lim maktablarda birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarga beriladigan musiqa madaniyati darslarida vokal san’ati haqidagi bilim va tushunchalar ularning keyingi estetik rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, musiqa mashg‘uloti faqatgina kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlaridangina iborat bo‘lib qolmasligi uchun, o‘qituvchi musiqa madaniyati darslariga jiddiy e’tibor bermog‘i lozim. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor o‘quvchilarni musiqani eng birinchi navbatda mazmunini, nazariy va badiiy xususiyatlarini anglab, tasavvur etib, ongli ravishda idrok eta olishlariga qaratilmog‘i lozim. O‘quvchi mana shunday malakaga ega bo‘lsagina, u o‘zi tinglagan, kuylagan musiqiy asar haqida fikr bildira oladi, unga o‘z munosabatini ifodalab bera oladi.

Musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy musiqa me’rosimizga voris sifatida ulg‘ayadigan, bilimli, sog‘lom yoshlarni

tarbiyalash va ularni ona zaminga bo‘lgan mehr-u muhabbatini oshirish. Shu bilan birgalikda har bir o‘quvchining musiqiy iqtidorini, san’atga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirish musiqa ta’limining asosiy vazifasidir. O‘qituvchi musiqa madaniyati darslari orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, badiiy estetik qiziqishlarni, musiqiy didni tarbiyalaydi. Shuning uchun o‘qituvchidan musiqa nazariyasini yaxshi bilishi, hamda vokal metodikasi jihatidan yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etiladi.

Pedagog o‘quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik usulidan ajrata olishi lozim. Ovoz turini aniqlashda membr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari, markaziy tovushlar, tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik-anatomik belgilar (Ovoz bog‘lamlarining uzunligi va zichligi, rezonator tizimlari va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak.

Musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jamoa bo‘lib kuylash mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning diqqati, ongliligi kuchayadi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi mustahkamlanadi va o‘rgangan qo‘shiqlarini ijro etganda zavqlanish hissi paydo bo‘la boshlaydi. Qo‘sish quylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do‘stona jamoaga birlashadi.

Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda qo‘sish qo‘rganishdan oldin maxsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o‘quvchilarning ishchi diapazonining primar (o‘rta) tovushlardan boshlab pastki tomon yo‘naluvchi tetraxodlardan foydalaniladi. Nafas esa me’yorida, shovqinsiz, yelkani ko‘tarmay, o‘z vaqtida olish va mayin atakada kuylashga alohida e’tibor beriladi. Ularning ovoz diapazonining haddan tashqari past yoki yuqori pardalarida kuylatish yaramaydi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> D.Soipova. “Musiqa o‘qitish nazariysi va metodikasi” O‘quv qo’llanma. Toshkent. 2009-y 131- bet

Musiqa madaniyati darslarida o‘qituvchi o‘quvchining ovoz turlarini, uning hajmini, kengligini aniqlash orqali ovoz xarakteriga mos bo‘lgan vokal mashqlari hamda qo‘shiqlar kuylatib borishi lozim, bu esa ovoz hajmi kengligini chiroyli, rang-barang tembrda va jarangdor bo‘lishida muhim omildir. Aksincha, baqirib, zo‘riqib kuylangan qo‘shiq salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yoshlar vokal asarlarini baqirib, zo‘riqib kuylaganlarida ovoz apparatlari buzilib, kasallanadi. Chunki yoshlarda ovoz chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan organlar o‘suvchan xarakterda bo‘ladi. Bundan tashqari, asarni baqirib kuylash badiiy ijro talablariga ham zid. U ovoz tembrini go‘zallik va ifodalilikdan mahrum qilib qo‘yadi.

Har bir kishining ovozi o‘ziga xos xususiyatga ega. Hatto chaqaloqning yig‘laganidagi ovozi ham o‘ziga xos ohangga, xususiyatga ega bo‘ladi va shu orqali ona o‘z bolasining ovozini boshqa chaqaloqlar ovozidan farq qiladi. Albatta, hayot davomida odamning turli yosh davrlarida ovoz ma’lum darajada o‘zgaradi. Ayniqsa o‘smirlarda (13 – 16 yoshda) ovozning o‘zgarishi juda sezilarli darajada bo‘ladi. Chunki shu yoshda hiqildoq va ovoz boylamlarining uzunligi o‘g‘il bolalarda ikki, qizlarda bir yarim barobar ortadi. Buning natijasida, ayniqsa, o‘smir yoshdagagi o‘g‘il bolalarda ovoz qo‘pollashib, do‘rillab qoladi. Bundan xavotirlanmaslik kerak. Bu fiziologik xususiyatga ega bo‘lib, o‘smirlik davri o‘tgandan keyin ovoz me’yoriy holga keladi. Lekin o‘smirlik davrida ba’zi gigiena qoidalariiga amal qilish zarur, ya’ni qattiq gapirmaslik, baqirmaslik, kuchli ovoz bilan ashula aytmaslik, shamollahdan saqlanish, achchiq taomlarga ruju qilmaslik kerak va hokazo .<sup>2</sup>

Bolalar qo‘srig‘ida yengillik, shaffoflik, tovush tembri, cheklangan diapazon va tovush kuchi bilan ajralib turadigan falsetto tovushidan

---

<sup>2</sup> A.Haydarov. “Vokal” O‘quv qo’llanma. Qo’qon. 2019-y. 51- bet

foydalilanildi. Yetti yoshga qadar qo'shiq aytish falsetto xarakterini saqlab qoladi. 12-13 yoshda esa ko'krak tembri ham qisman ochiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mumkin bo'lgan repertuarni qat'iy tanlash, ma'lum bir yosh va o'rtacha ovoz kuchi uchun tabiiy diapazon bilan cheklanishi kerak. Buzib va juda uzoq qo'shiq aytishga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki shundan keyin ovoz charchaydi. Bu ovozni majburlash, halqumni haddan tashqari zo'riqtirish, baland tovushlarda ko'krak tembrini oshirib yuborish, noqulay siqilishda qo'shiq aytish natijasida yuzaga keladi.

O'qituvchi o'quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan hamda turli pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish orqali bolalarning dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa ta'siri ostida bo'ladigan har qanday hissiy, badiiy, emotsional kechinmalar esa, ayniqsa yosh bolalar qalbida o'ziga xos yuksak olivjanob his-tuyg'u, kechinmalarni uyg'otadi, ularni «olivjanob va mehribon» qilib tarbiyalab boradi. Chunonchi, buyuk kompazitor D.Shostakovichning quyidagi fikrlarida musiqaning naqadar sehrli va jozibador ekanligini anglashimiz qiyin emas: "Buyuk musiqa san'atini seving. U sizga olam jaxon ulug' hislar, jo'shqin kayfiyat va fikrlar hosil qiladi. Sizni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayli siz o'zingizda yangi kuch sezasiz, u sizni barkamol inson darajasiga yaqinlashtiradi"<sup>3</sup>

Musiqa madaniyati darslarida qo'shiqlar vositasida o'quvchilarda vokal san'ati ko'nikmalarini shakllantirish orqali jahon va o'zbek vokal san'atining naqadar boy tarixga ega ekanligi xususida o'quvchilarning bilimga ega bo'lishi kelajakda vokal san'atida buyuk insonlar yetishib chiqishida katta ahamiyatga ega.

---

<sup>3</sup> D.Shostakovich. Znayte I lyubite muziku. M, Presvesheniye 1973-g 19str

Musiqa madaniyati darslarida pedagogik texnologiyalar usulini qo'llashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunday mashg'ulotning rejalarashtirilgan ta'limiy maqsadiga erishish kafolatlanadi. Umumta'lim mакtabalarida har bir musiqa darsining o'ziga xos murakkab texnologiyasi bor. Buning uchun musiqa o'qituvchisi har bir darsni undagi faoliyat turlarini yaxlit holda ko'ra olish kerak. Uni tasavvur eta olish uchun o'tilajak mashg'ulotni oldindan loyihalashtirish zarur. Bunda mashg'ulot rahbariga bo'lajak mashg'ulotning texnologik haritasini tuzish katta yordam beradi. Darsning texnologik haritasi har bir mashg'ulotning xususiyati mashg'ulot rahbari va bolalarning qobiliyati, qiziqishi, imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib tuziladi. Buning uchun mashg'ulot rahbari pedagogika, psixologiya, musiqa tarbiyasi metodikasi, pedagogik va axborot texnologiyalardan yaxshi xabardor bo'lishi, ko'plab metod va interaktiv usullarni yaxshi bilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari bo'yicha olib boriladigan ishlarning sifati va samaradorligini oshirishda, vokal asarlarini mukammal o'r ganishda, nota savodxonligini bilish va uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olish orqali o'quvchilarning vokal san'atini puxta o'zlashtirishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarda vokal ko'nikmalarini shakllantirishda ovoz qo'yish mashqlarini mukammal egallash, ularda kuylash malakalari samaradorligini oshirishda asosiy vazifa hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. D.Soipova "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009-y 131- bet
2. Azizbek Haydarov "Vokal" O'quv qo'llanma. Qo'qon. 2019- yil 51- bet
3. D.Shostakovich. Znayte i lyubite muziku. –M., Presveshenie, 1973g.19str.

**4.**<https://hozir.org/>